

В заключение хотелось бы отметить, что социолингвистическая компетенция является важным компонентом коммуникативной компетенции, который позволяет успешно взаимодействовать с носителями иностранного языка в различных социальных и культурных контекстах. Изучение социолингвистической компетенции способствует не только развитию языковых навыков, но и формированию межкультурной компетенции, толерантности и взаимопонимания.

### **Список использованной литературы**

1. Амерханова О.О., Формирование дискурсивной компетенции в целях обучения иностранному языку. // 2016. С. 216-220.
2. Бобрикова О.С., Иванова В.И., Социолингвистическая компетенция переводчика: сущность и компонентный состав // Вестник Брянского государственного университета. 2016. С. 212-217.
3. Зияева С.А., Социолингвистическая компетенция как один из компонентов коммуникативной компетенции. // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии. 2016. С. 92-96.
4. Маргус Т.И., Ломакиной О.Е., Теоретическая модель понятия «Иноязычная социолингвистическая компетенция». // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2006. С. 476-481.
5. Медведева А.С., Коммуникативная компетентность как объект междисциплинарного исследования. // Преподаватель XXI век. 2017. С. 50-55.
6. Чжо Лэй, Барышнекова Е.Н., Развитие коммуникативной компетенции китайских студентов-филологов в процессе обучения русскому языку. // Концепт. 2023. С. 138-154.

### **ABBREVIASIYA - SO‘Z YASASH USULINING TURI SIFATIDA**

*Dilfuza SAIDQODIROVA*

*O‘zDJTU, Madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik ta’minoti kafedrasi dotsenti, f.f.d. DSc*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida abbreviasiya yo‘llari bilan so‘z yasash usullari tadqiq etilgan bo‘lib, unga ko‘ra ingliz va o‘zbek tillari internet terminologiyasining muhim salmog‘ini tashkil etgan abbreviaturalar asosan so‘z birikmalari komponentlarining bosh qismlari asosida vujudga kelgan qisqartmalar bo‘lib, ular bir nechta guruhlarga ajraltilgan holda tadqiq etilgan.*

*Kalit so‘zlar: abbreviasiya, akronim, qisqartma so‘zlar, termin, internet.*

Ingliz tilshunosligida abbreviasiya va akronimlarni so‘z yasash usuli sifatida qabul qilish yondashuvi keng tarqalgan bo‘lsada, o‘zbek tilshunosligida bu borada o‘zgacha nuqtai nazar mavjud. Xususan, akademik A. Hojievning yozishicha: “Abbreviasiya yo‘li bilan hosil qilingan qisqartmalar (abbreviaturalar) so‘z birikmasining qisqartirilgan shaklidir. Qisqartmaning komponentlari esa holiga (so‘z holiga) keltirilsa, ular (qisqartmalar) yana so‘z birikmasiga aylanadi. Demak, abbreviasiya yo‘li bilan so‘z (leksema) hosil bo‘lmaydi. So‘z hosil bo‘lmas ekan, bu usulni so‘z yasash usuli, deyish ham mumkin emas”. Ingliz va o‘zbek tillaridagi internet terminlari orasida qisqartma terminlarning ko‘p miqdorda uchrashi, bir tomondan, jamiyat, fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tadqiq qilinayotgan tillardagi internet terminlarining nominativ derivation xususiyatlaridan biri hisoblanmish aktiv termin elementlar sifatida ularning qisqartma so‘zlar ko‘rinishida qo‘llash an’anaviy tus olganligi bilan izohlanadi. Chunki so‘z birikmalari negizida yuzaga keladigan qisqartma terminlar ham ularni hosil qilgan birikmalardagi aynan o‘sha ma’lumotni ifodalashga mo‘ljallangan bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday so‘zlarning paydo bo‘lishi va keng ommalashishi internet bilan bog‘liq maxsus tushunchalarni ifodalashda lisoniy vositalarni tejashga bo‘lgan moyillik bilan belgilanadi. Ingliz va o‘zbek tillari internet terminologiyasining muhim salmog‘ini tashkil etgan abbreviaturalar asosan so‘z birikmalari komponentlarining bosh qismlari asosida vujudga kelgan qisqartmalar bo‘lib, ular bir nechta guruhlarga ajraladi: a) so‘zning bir qismini tushirib qoldirish usulida amalga oshiriladigan qisqartmalar; b) so‘z birikmasi komponentlarining bosh harflari asosidagi abbreviaturalar; s) aralash turdagi abbreviaturalar. Ingliz va o‘zbek tillaridagi internet terminlarining abbreviaturalari eng katta miqdori birikma-terminlarning bosh harflaridan tuzilishi aniqlandi. Ingliz tilshunosligida abbreviaturalarning umumiy ko‘rinishidan tashqari yana ikki turi tilga olinadi: **akronimlar (acronyms)** va **inisial abbreviaturalar (initialisms)**. Abbreviaturalarning bir turi hisoblangan akronimlar qisqartmalar tarkibidagi bosh harflar yig‘indisi bo‘lib, mustaqil leksema kabi talaffuz qilinishi bilan ajralib turadi.

Ingliz tilidagi (initial) inisial abbreviaturalar (lotincha “initio” – birinchi, ilk so‘zidan)

tarkibli qo‘shma otlarning birinchi harflaridan tuziladi va qisqartmalarning har biri komponenti alohida harf tarzida talaffuz qilinadi. Inisial turda xosil qilingan qisqartma so‘zlarning odatda maxsus ilmiy-texnikaviy terminlarda ayniqsa ko‘p ishlatilishi e‘tirof etiladi. Solishtirilayotgan tillardagi bosh harflar yig‘indisidan tashkil topgan internet terminlari inisial abbreviaturalarining har bir harfi alohida talaffuz qilinadi. Bu holat ularning akronim emas, balki inisial abbreviatura shaklida ekanligini ko‘rsatadi. Chunki ingliz tilidagi har bir harfning nomi mavjud bo‘lib, inisial internet terminlari talaffuzida harflarning nomlari aytilishi qabul qilingan. O‘zbek tiliga ham o‘zlashgan va ommalashgan qisqartma internet terminlari aynan o‘sha shaklda talaffuz qilinadi. Masalan, ingliz tilidagi *GPS – General Positioning System; HTTP – Hyper Text Transfer Protocol; HDML – Handheld Devices Markup Language; HDSL – High-bit-rate Digital Subscriber Line* kabi ko‘plab terminlar o‘zbek tili uchun internasionl inisiallar hisoblanadi.

Internet terminlari orasida reversiv qisqartmalar ham uchrashi kuzatiladi. Reversiv qisqartmalar abbreviasiya usulining eng yosh turi bo‘lib, ilk bor ingliz tili doirasida paydo bo‘lgan va ishlatila boshlangan. Bu qisqartma turi nomi ingliz tilidagi “to reverse” so‘zidan olingan bo‘lib, “ortga qaytish, qaytarish” ma’nosini anglatadi, hosil qilinishi jihatidan oddiy akronim yasalihi jarayonining aksi deya izohlanadi. Reversiv qisqartmalar tarkibiy qo‘shma so‘zlarning ma’lum bir qismlari – goh bir bo‘g‘ini, goh faqat bosh harflari va ma’lum qisqartmalarda aralash tarzda hosil qilinadi va **yangi so‘z** kabi o‘qiladigan birikma xosil qiladi. Bu yangi yasalgan so‘z unga asos bo‘lgan qo‘shma so‘zlar anglatgan ma’noga yaqin bo‘ladi, uning maqsadini ochib beradi yoki umumlashtiradi, shu bilan birga, reversiv qisqartmalarni shakllantirishda avvaldan ma’lum boshqa bir so‘zga, qolipga shaklan mos kelishiga erishiladi. Masalan, netizen so‘zi internet – interenet va citizen – inson, fuqaro so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, internet odami, fuqarosi degan ma’noni anglatadi. wordrobe qisqartmasi word – so‘z va wardrobe – garderoob, kiyim shkafi so‘zlaridan hosil qilingan bo‘lib, “so‘z zahirasi” tushunchasini tashiydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Hojiev A. Termin tanlash mezonlari. –T.: Fan, 1996, B. 23-25.

2. Kurilo N.A. Sokrasheniya v sovremennom angliyskom yazike: funktsionalniy aspekt. – Minsk, 2005.

3. Eldorjon Y. Shermatov (2023). Principles of teaching a foreign language to journalism students using LMS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(04), 7–12. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/23042>

4. Shermatov Eldor Yovmiddinovich. Specific training of professional vocabulary of the English language for students of journalism. Theoretical & Applied Science 9 (2020): 467-470.

5. Tolibova G.R. (2024). Issues of Intensive Teaching of Foreign Languages. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 488–490. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/6499>

## UNDALMALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Jetkerbay SEYTJANOV*

*filologiya fanlari nomzodi, professor*

*Berdaq nomli Qoraqalpoq davlat universiteti*

***Annotatsiya.** Tilda insonning dunyodagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlaridan tashqari, uning o‘sha narsalarga bo‘lgan munosabati ham aks etadi. Bunday munosabatlar, ayniqsa, undalmalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Munosabat ifodalash bo‘yicha ingliz va o‘zbek tillaridagi undalmalar bir–biridan keskin farq qiladi. Bu tafovut ildizlari ingliz va o‘zbek xalqlari madaniyati o‘rtasidagi o‘ziga xoslikka borib taqaladi.*

***Kalit so‘zlar:** undalma, lingvistika, madaniyat, so‘z birikmasi, til va nutq, ritorika, gap bo‘laklari.*

Hozirgi amaliy grammatika bo‘yicha darsliklarda undalmalarga juda kam o‘rin ajratilgan. Fikrimizcha, yangi yoziladigan darsliklarda uni kengroq yoritish zarur, chunki, hozirgi zamon chet til o‘qitish metodikasida faqat tilni emas, shu orqali o‘rganilayotgan xalqning madaniyatini ham o‘zlashtirish talab qilinmoqda. Undalmalar tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatining bir qismini ifodalaydi. Nutq qaratilgan shaxs yoki narsa, ya’ni undalma ifodalagan shaxs yoki narsa so‘zlovchi nuqtai nazaridan ijobiy, salbiy va neytral bo‘lishi mumkin. Ijobiy munosabat ikkiga bo‘linadi:

1) erkalashni ifodalovchi undalmalar;